TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 3-dekabr | 326-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “Viloyatning shahar va tumanlari hududidagi davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berish to‘g‘risida”gi 823-10-0-Q/24-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida”gi videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 19.1-bandi hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 823-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Yer kodeksi”ning 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 211-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 20 noyabrdagi 823-10-0-Q/24-sonli qarori** ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilovaga muvofiq tuman hududidagi davlat organlari, foydalanishidagi jami **2** ta obyekt joylashgan **2,3621** gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq yer maydonlari ajratilayotgan tashkilotlarning arizalariga asosan, belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi  **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 3-dekabrdagi
326-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilayotgan amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlari

T/r	**Shahar yoki tuman nomi**	**Doimiy foydalanish huquqi bilan yer maydoni ajratilayotgan davlat idorasi nomi**	**Yer maydonidan foydalanuvchi yoki yer maydonida joylashgan obyekt nomi**	**Yer maydoni** *gektar*	**Kadastr raqami**
1.	Toshkent tumani	“Markaziy osiyo atrof muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti” (Green university) davlat muassasasi	O‘rmon xo‘jaligi texnikumining bino va inshootlari	2,103	11:11:40:02:02:0032
2.	Toshkent tumani	Energetika vazirligi	“Shreder” ustachilik bo‘limi	0,2591	11:05:42:01:02:0102